

Ergash Islomov tavalludining 80 yilligi



Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Mustaqillikning 25 yilligi” ko‘krak nishoni, “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni, Madaniyat vazirligining “A‘lo xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni, Madaniyat vazirligining “Madaniy oqartuv ishlari a‘lochisi” ko‘krak nishonlari. Ushbu unvon hamda ko‘krak nishonlari sohibi 80 yoshni qarshilagan Ergash Islomov. 1941- yil 11- noyabrda Toshkent shahrida ishchi oilasida tug‘ilgan Ergash Islomov o‘zining bosib o‘tgan sharaflı umr yo‘lida davlatimizning ana shunday e‘tibor va e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.



Hayoti ilm, o'qituvchilik, jamoatchilik ishlari bilan bog'langan mehribon ustoz ko'plab shogirdlar tayyorladi. Qutlug' sana munosabati bilan bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida uning shogirdlari, ayni paytda ham birga faoliyat olib borayotgan hamkasblari jam bo'lishdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev so'zga chiqib, ustoz Ergash Isломovning sharaflı hayot yo'li haqida so'zlab berdi. Talabalarni kitob bilan oshno bo'lish, ilm-ma'rifat yo'lida tinmay izlanishga undagan ustozning o'g'itlari yana bir bor yodga olindi. Hayotning mashaqqatli yo'lida murakkab vaziyatga tushib qolgan kishilarga qilgan yaxshiliklari e'tirof etildi. So'zga chiqqan shogirdlari, hamkasblari tomonidan samimiy, eng ezgu tilaklar izhor qilindi. Mehribon ustozga esdalik sovg'alari topshirildi.



Islomov Ergash G'ulomovich Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti kutubxonashunoslik kafedrasida stajyor-o'qituvchi, katta o'qituvchisi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutida katta o'qituvchi, kutubxonashunoslik fakulteti dekani o'rinbosari, sirtqi fakultet dekani, Madaniyat vazirligi O'quv yurtlari boshqarmasi boshlig'i, Respublika madaniyat xodimlari malakasini oshirish institutida katta o'qituvchi, dekan, o'quv va tarbiya ishlari bo'yicha prorektor, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti kutubxonashunoslik kafedrasida dotsenti, Madaniyat ishlari vazirligida istiqbolni belgilash, uslubiy va axborot Respublika markazi direktori o'rinbosari, direktor, vazirlik hay'ati kotibi, raxbariyat qoshidagi bo'lim boshlig'i, O'zbekiston Davlat tabiat muzeyi direktori, O'zbekiston

Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi Respublika inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari, Madaniy meros bo'yicha hujjatlarni arxivlashtirish va elektron raqamlashtirish sektori arxiv mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.



Isломov Ergash G'ulomovich kutubxona ishini tashkil etish va boshqarish, maktab va litsey kutubxonalari ishini tashkil etish, O'zbekistonda kutubxonachilik ishining istiqbol rejaları yo'nalishlarida bir qancha o'quv uslubiy qo'llanmalarining muallifi hamdir.



Ustoz hozirgi kunda ham O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi a'zosi, Toshkent shahar Olmazor tumani " Miskin" mahalla fuqarolar yig'ini raisi maslahatchisi-iste'molchilarni himoya qilish komissiyasi rahbari sifatida jamoatchilik asosida o'z faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Matbuot kotibi